

Kichik tadbirkorlik
Yanvar-sentabr 2019 yil

E'tibor bering!

>2019 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdag'i ulushi 74,3%ni tashkil etdi.


>3,9 mingta yangi kichik korxona va mikrafirmalar tashkil qilindi.

>2019 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlok sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 10,4 birlikni tashkil qildi.

2019 yilning yanvar-sentabrida 3,9 mingta yangi kichik korxona va mikrafirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) tashkil qildi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbati 38,3% ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxona va mikrafirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda savdo (36,2) , sanoatda (20,8), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga (13,3%), yashash va ovqatlanishda (8,5%), qurilish tarmog'ida (7,8), tashih va saqlashda(2,8%) tashkil etgan.

2019 yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan Kichik korhona va mikrofirmalarning Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2019 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

| | o'lchov birligi | 2018 y. | 2019 y. | (+/-) |
|---|--------------------|---------|---------|-------|
| Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | birlik | 11666 | 14858 | 3192 |
| Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar | birlik | 1510 | 3944 | 2434 |
| YaHM | % | 78,6 | 74,3 | -4,3 |
| Sanoat | % | 39,0 | 35,6 | -3,4 |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | % | 99,9 | 99,7 | -0,2 |
| Investitsiya | % | 52,1 | 61,7 | 9,6 |
| Qurilish | % | 89,9 | 93,6 | 3,7 |
| Savdo | % | 82,3 | 76,0 | -6,3 |
| Xizmatlar | % | 69,6 | 65,3 | -4,3 |
| Yuk tashish | % | 93,0 | 94,0 | 1,0 |
| Yuk aylanmasi | % | 90,5 | 89,9 | 0,1 |
| Yo'lovchi tashish | % | 94,6 | 94,2 | -0,4 |
| Yo'lovchi aylanmasi | % | 96,6 | 96,3 | -0,3 |
| Eksport | % | 73,6 | 91,5 | 17,9 |
| Import | % | 96,1 | 91,2 | -4,9 |


**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona
va mikrofirmalar**

(birlikda)

| | yanvar-sentabr 2018 y. | yanvar-sentabr 2019 y. |
|------------------------|-----------------------------------|-----------------------------------|
| Xorazm viloyati | 1510 | 3944 |
| Urganch sh | 388 | 752 |
| Xiva sh | 129 | 362 |
| <i>Tumanlar:</i> | | |
| Bog'ot | 81 | 215 |
| Gurlan | 78 | 305 |
| Qo'shko'pir | 102 | 262 |
| Urganch | 191 | 530 |
| Xazorasp | 100 | 314 |
| Xonqa | 117 | 300 |
| Xiva | 100 | 250 |
| Shovot | 98 | 249 |
| Yangiariq | 78 | 208 |
| Yangibozor | 48 | 197 |

2019 yilda yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Urganch shahrida - 752 ta, Urganch tumanida - 530 ta, Xiva shahrida - 362 ta. Xonqa tumani - 300 ta, Xazorasp tumanida - 314 ta, Qo'shko'pir tumanida - 262 ta. Xiva tumanida-250 ta Shovot, Bog'ot, Yangiariq tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, 208-249 tani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni Yangibozor tumanida –197 tani tashkil etgan.

**2019 yil yanvar-sentabr holatiga yangi tashkil topgan
kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar
bo'yicha ulushi**



2019 yil yanvar-sentabr holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Urganch sh. - 19,1 %, Urganch tumani - 9,2 %, Xazorasp tumani – 8,0 %, Xiva sh. - 8,8 %, Gurlan tumani - 7,7 %, Xonga tumani - 7,6 %, Qo'shko'pir tumani - 6,6 %, Xiva tumani – 6,3 %, Shovot tumani - 6,3 %, Bog'ot tumani - 5,4 %, Yangiariq tumani - 5,3 %, eng past ko'rsatkich Yangibozor tumanida - 5,0 % ni, tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan
kichik korxona va mikrofirmalar**

(birlikda)

| | yanvar-sentabr 2018 y. | yanvar-sentabr 2019 y. |
|---|-----------------------------------|-----------------------------------|
| Jami | 1510 | 3944 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 177 | 524 |
| Sanoat | 339 | 820 |
| Qurilish | 176 | 309 |
| Savdo | 415 | 1427 |
| Tashish va saqlash | 60 | 112 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 151 | 334 |
| Axborot va aloqa | 21 | 45 |
| Sog'lirqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 37 | 68 |
| Boshqa turdag'i xizmatlar | 134 | 305 |

2019 yil yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar eng ko'p savdoda 1427 ta, shuningdek :

sanoatda - 820 ta;

yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 334 ta;

qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 524 ta;

xizmatda - 305 ta ni tashkil etdi.


Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar

birlikda

| | yanvar-sentabr 2019 y. | yanvar-sentabr 2018 y. | farq (+-) |
|-------------|-----------------------------------|-----------------------------------|------------------|
| Urganch sh | 752 | 388 | 364 |
| Urganch | 530 | 191 | 339 |
| Xiva sh | 362 | 129 | 233 |
| Xazorasp | 314 | 100 | 214 |
| Gurlan | 305 | 102 | 203 |
| Xonqa | 300 | 117 | 183 |
| Qo'shko'pir | 262 | 102 | 160 |
| Xiva | 250 | 100 | 150 |


2019 yil yanvar-sentabrda yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'sish Urganch shahrida – 752 ta, Urganch tumanida – 530 ta, Xiva shahrida - 362 ta, Xazorasp tumanida bu ko'rsatkich -314 tani tashkil etdi, Gurlan tumanida - 305 ta, Xonqa tumanida–300 ta.Qo'shko'pir va Xiva tumanlarida bu ko'rsatkich 262-250 tani tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2019 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Urganch shahrida 24,8 birlikda, Xiva shahrida 15,5 birlikda, Yangiariq tumanida 12,6 birlikda, Urganch tumanida 12,3 birlikda Xiva tumanida 11,2 birlikda va Yangibozor tumanida 10,7 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 7-9 birlik oralig'ida Gurlan, Xonqa, Shovot, Qo'shko'pir, Xazorasp tumanlarida aniqlandi. Bog'ottumanida 6,5 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

2019 yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)




Agar, 2018 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 11,7 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 10,4 birlikda va 2018 yilga nisbatan 1,3 birlikka ko'maydi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga




Quyida, 2019 yilning yanvar-sentabrida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 35,6 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi - 99,7 %, qurilishda - 93,6 %, investitsiyada - 61,7 %, savdoda - 76,0 %, eksportda - 91,5 %, importda - 91,2 %va xizmatlar sohasidagi - 65,3 % ulushi aniq ko'rsatilgan.

2019 yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlarida kichik tadbirkorlikning ulushi




Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi dinamikasi yanvar-sentabr holatiga, %

2019 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 74,3 %ni tashkil qildi (2018 yilning yanvar-sentabrida 78,6 %). YaHM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.



Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan %da)



**2019 yil yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (%)**

| | Sanoat | Qurilish | Xizmatlar | Investitsiya |
|------------------|---------------|-----------------|------------------|---------------------|
| Xorazm | 35,6 | 93,6 | 65,3 | 61,7 |
| Urganch sh | 57,8 | 91,0 | 38,6 | 42,2 |
| Xiva sh | 98,2 | 98,1 | 88,9 | 75,0 |
| <i>Tumanlar:</i> | | | | |
| Bog'ot | 64,2 | 94,7 | 96,5 | 80,8 |
| Gurlan | 67,0 | 100,0 | 98,3 | 77,1 |
| Qo'shko'pir | 63,3 | 91,1 | 93,7 | 76,4 |
| Urganch | 79,0 | 92,0 | 82,1 | 65,3 |
| Xazorasp | 5,1 | 99,6 | 93,5 | 71,3 |
| Xonqa | 38,5 | 89,3 | 91,7 | 82,5 |
| Xiva | 99,5 | 91,0 | 92,7 | 68,1 |
| Shovot | 64,5 | 100,0 | 97,1 | 75,6 |
| Yangiariq | 58,5 | 100,0 | 96,9 | 89,2 |
| Yangibozor | 77,1 | 92,3 | 97,4 | 78,4 |


Hududlar bo'yicha **sanoat** sohasining yuqori ulushini Xiva tumani (99,5 %), Xiva shahar (98,2 %) va Urganch (79,0 %) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda - Xazorasp (99,6 %), Shovot (100,0 %) Gurlan (100,0 %), va Yangiariq (100,0 %) tumanlarni tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Yangiariq (96,9%), Gurlan (98,3%), Qo'shko'pir(93,7%), Yangibozor (97,4 %), va Shovot (97,1 %), tumanlari tashkil etadi.


Investitsiyada - Yangiariq (89,2 %), Xonqa (82,5 %) va Bog'ot (80,8 %) tumanlari tashkil etadi.

Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat)larning, jami eksport hajmidagi ulushi, %




2019 yil yanvar-sentabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat)larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Yangibozor tumani - 100,0%, Yangiariq tumani -100,0%, Shovot tumani –100,0%, Xiva tumanida - 100,0, Qo'shko'pir tumani -100,0 % Gurlan tumani - 100,0 %, Bog'ot tumanida – 100,0 % , eng past ko'rsatkichni Urganch tumani - 69,7 %, va Urganch sh. - 77,5 %, ni tashkil etdi.


2019 yil yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Urganch shahri (838,4 mlrd. so'm), Shovot (165,2 mlrd. so'm), Gurlan (163,0 mlrd. so'm) va Urganch (159,5 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Qo'shko'pir (65,7 mlrd. so'm) va Yangiariq tumanida (76,8 mlrd. so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




**2019 yil yanvar-sentabr holatiga jami sanoat mahsulotidagi
kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %**



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat maxsulotidagi eng yuqori ulushi Xiva tumanida(99,5%), Xiva shahri (98,2%), Urganch tuman (79,0%), Yangibozor tumani (77,1%), Gurlan tumani (67,0%), Shovot tumani (67,0%) va Bog'ot umani (64,2%). Xonqa (38,5%) va Xazorasp tumanida (5,1%) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.


2019 yil yanvar-sentabrda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo`yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Urganch shahri (901,3 mlrd. so'm), Xazorasp (511,4 mlrd. so'm), Urganch (389,6 mlrd. so'm), Gurlan (308,8 mlrd. so'm), va Xonqa (268,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




2019 yil yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Urganch shahri (408,6 mlrd. so'm), Xiva tumani (252,0 mlrd.so'm), Urganch (170,8 mlrd. so'm) hamda Xonqa (134,8 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.




2019 yil yanvar- sentabrda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo`yicha ko'proq xizmatlar hajmi Urganch shahri (796,2 mlrd.so'm), Urganch (267,8 mlrd.so'm), Xazorasp (235,3 mlrd.so'm), Xonqa (183,3 mlrd.so'm) va Gurlan (179,4 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2019 yil III - chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 108 respondentlar ishtirok etdi. Ulardan sanoat korxonalarini 23(ishtirok etgan respondentlarning umumiyligi sonidan 21,3%), qurilish - 8 (7,4 %), savdo-39 (36,1 %), xizmatlar sohasi-24 (22,2 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 14 (13,0 %) tashkil etdi.

**2019 yil III- chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan
yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**




Hududlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning ulushi Urganch shahrida - 25,0 %, Urganch tumani -13,0 %, Xiva shahrida - 11,1 %, Qo'shko'pir tumani - 9,3%, Xonqa va Yangiariq tumanida - 8,3 %. ulushini tashkil qildi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 37,5 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 50,0 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 35,9 % va 53,8 %, xizmatlar sohasida – 33,3 % va 62,5 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 35,7 % va 57,1 %, sanoatda – 30,4 % va 56,5 %ni tashkil qilganini ko`rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar qurilishda – 12,5 %, savdoda – 10,3 %, xizmatlarda – 4,2 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 7,2 % sanoatda – 13,1 %, ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2019 yil III–chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 78,3 % sanoat korxonalari, 71,8 % – savdo, 70,8 % – xizmatlar, 92,9 % – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 50,0 % – qurilish tarmog'ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko'rilibotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobjiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: T.Xodjaniyazov

Tel.: (0372) 230-87-69, 230-87-66